KASBIY TA’LIM O‘QUVCHILARDA TA’LIM NATIJALARI (LEAR-NING OUTCOMES) ASOSIDA TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Narbayev Alisher Erkinjon o‘g‘li, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi, Samarqand viloyat direktori
e-mail: alisher.narbayev@icloud.com

Annotatsiya Maqolada mamlakatimizda kasbiy ta’lim o‘quvchilarining bandligini ta’minlash, mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash va aholi farovonligini oshirish borasida, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan bepul kasb-hunarga o‘qitish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimining huquqiy hamda tashkiliy asoslari yoritilgan. Zamonaviy professional ta’limda mehnat bozorida yuqori texnologiyalar va raqamlashtirish jarayonlarining o‘rni ortib borayotgan sharoitda, o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, axborot texnologiyalari hamda zamonaviy uskunalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ishda tizimning bugungi holati, mavjud muammolar va kasbiy ta’lim o‘quvchilarining kasbiy tayyorlash sifatini oshirish bo‘yicha, ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: davlat hisobidan o‘qitish, tadbirkorlik ko‘nikma, kasb-hunar, zamonaviy texnologiyalar, kasbiy ko‘nikma, dual ta’lim, malaka oshirish, bandlik, mehnat bozori, raqamli savodxonlik.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НА ОСНОВЕ РЕЗУЛЬТАТОВ ОБУЧЕНИЯ.

Аннотация. В статье анализируются государственные инициативы, направленные на обеспечение занятости обучающихся в системе профессионального образования, подготовку кадров с учетом потребностей рынка труда и оказание поддержки населению. Рассматривается нормативно-правовая база, регулирующая вопросы профессионального обучения, переподготовки и повышения квалификации за счет средств государственного бюджета. Учитывая возрастающую роль высокотехнологичных систем и современного оборудования в сфере профессионального образования и на рынке труда, особое внимание в статье уделяется оценке уровня цифровой грамотности обучающихся, а также формированию у них навыков работы с

информационными технологиями и современным оборудованием. Кроме того, в работе исследуется текущее состояние профессионального обучения и существующие проблемы, а также предлагаются научно-практические рекомендации по повышению эффективности профессионального образования и подготовки кадров.

Ключевые слова: обучение за счет государственных средств, предпринимательские навыки, профессиональное обучение, современные технологии, профессиональные навыки, дуальное обучение, повышение квалификации, трудоустройство, рынок труда, цифровая грамотность.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING ENTREPRENEURIAL SKILLS IN STUDENTS OF VOCATIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS BASED ON LEARNING OUTCOMES.

Abstract: The article analyzes the reforms implemented by the state to ensure the employment of vocational education students, train personnel aligned with labor market demands, and improve public well-being. It outlines the legal and organizational foundations of the system for providing free vocational training, retraining, and skills upgrading funded by the state budget. Amid the growing role of high technologies and digitalization in the labor market, the article places special emphasis on enhancing students' digital literacy and developing their skills in working with information technologies and modern equipment. Furthermore, the study examines the current state of the system and existing challenges, while putting forward scientific and practical proposals and recommendations to improve the quality of vocational training for students.

Keywords: State-funded training, entrepreneurial skills, vocational training, modern technologies, professional skills, dual education, professional development, employment, labor market, digital literacy.

Kirish. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi mamlakat taraqqiyotining o‘rta muddatga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari, maqsadlari hamda ularga erishish bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilab berilgan.

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan global o‘zgarishlar, sanoat va texnologiyalarning keskin rivojlanishi, yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasini 29-bandi fuqarolarni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha kasbiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga bag‘ishlangan. Maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari Asosiy ustuvor samaradorlik ko‘rsatkichi kasb-hunarga o‘qitishda xususiy sektor ulushini 30 foizga yetkazish, 2025-yildagi ko‘rsatkich 8%, 2026-yil 10%, 2027-yil 14%, 2028-yil 19%, 2029-yil 24%, 2030-yil 30%, ga xususiy sektor manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

Shuningdek 2 million nafar fuqarolarni kasb-hunar, tadbirkorlik koʻnikmalari va xorijiy tillarga oʻqitishda, 2025-yildagi koʻrsatkichi 220 ming, 2026-yilda 400 ming, 2027-yil 900 ming, 2028-yil 1,3 mln, 2029-yil 1,7 mln, 2030-yil 2 mlnga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlar agentligi va Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik vazirliklari mablagʻlari hisobidan amalga oshiriladi.

Kasbga oʻqitish markazlarining 2030-yilga qadar 1,6 ming nafar oʻqituvchilarini xalqaro standartlar asosida malakasini oshirish belgilangan. 2025-yilda 150 ta, 2026-yilda 500 ta, 2027-yil 900 ta, 2028-yil 1 200 ta, 2029-yil 1 350 ta, 2030-yil 1 600 tani tashkil etishi strategiyaning 29-bandida belgilangan.

Yana shuni aytib oʻtishim kerakki vaucher tizimi asosida 700 ming nafar ishsizlar, rasmiy daromadga ega boʻlmagan ish qidirayotgan fuqarolarning kasb-hunar, tadbirkorlik koʻnikmalari va xorijiy tillarga oʻqitish xarajatlarni qoplab berish belgilangan. Bunda; 2025-yildagi koʻrsatkichi 147 ming, 2026-yilda 120 ming, 2027-yil 250 ming, 2028-yil 390 ming, 2029-yil 540 ming , 2030-yil 700 mingga bandlikka koʻmaklashish davlat maqsadli jamgʻarmasi va ijrochilar mablagʻlari vazifalari belgilanganlgi, va sun'iy intellekt orqali zamonaviy kasblar va fanlarni bepul (onlayn) oʻrganuvchi yoshlarning sonini 3 mln nafarga yetkazishda, 2025-yildagi koʻrsatkichi 0,85 mln, 2026-yilda 1,1 mln, 2027-yil 1,4 mln, 2028-yil 1,9 mln, 2029-yil 2,4 mln, 2030-yil 3 mlnga yetkazish vazifalari berilgan.

Metodologiya Oʻquv natijalariga asoslangan kasb-hunar ta'limida oʻquvchi yoshlarning tadbirkorlik koʻnikmalarini samarali rivojlantirishning pedagogik asosi nazariya va amaliyotning uygʻunlashuvi hamda kompetensiyalarni baholash mezonlarining aniq belgilanishiga tayanadi. Tadbirkorlik koʻnikmalari shunchaki biznesni boshqarishga oid bilimlarni emas, balki imkoniyatlarni aniqlash va qiymat yaratish qobiliyati salohiyatini anglatishi sababli, ta'lim jarayonining negizi an'anaviy kasbiy ta'lim mashgʻulotlaridan amaliy harakatga yoʻnaltirilgan oʻrganish modeliga oʻzgaradi. Bunda asosiy pedagogik yondashuvlar va tarkibiy qismlar quyidagilardan iborat deb bilaman.

Asosiy pedagogik asoslar: Tajribaviy o'rganish nazariyasi olim (David Kolb) - tajribasi: Aslida biznes gʻoyalarini ishlab chiqish. Refleksiv kuzatishda: Simulyatsiya qilingan muvaffaqiyatsizliklar yoki qiyinchiliklarni koʻrib chiqish.

Abstrakt kontseptualizatsiya: Tadbirkorlik nazariyalari va marketing usullarini tizimlashtirish. Faol tajriba: Bozorda (yoki kampus muhitida) qayta koʻrib chiqilgan rejalarni sinab koʻrish. Ushbu jarayonni aylanib oʻtish tadbirkorlik tafakkurini yashirin bilim sifatida singdiradi. Konstruktiv oʻrganish nazariyasi (masalan, Jon Dyui) - Bilim oʻqituvchilar tomonidan singdirilgan narsa sifatida emas, balki talabalar oʻz kontekstlarida yaratadigan narsa sifatida qaraladi. Kasb-hunar ta'limida koʻnikmalar real dunyodagi muammolarni hal qilish jarayoni orqali olinadi. Effectuation (Saras Sarasvathy) tadbirkorlarning oldindan aytib boʻlmaydigan sharoitlarda qoʻllaydigan fikrlash jarayonlariga - masalan, «mavjud resurslardan ish boshlash» va «yoʻqotish mumkin boʻlgan miqdorni belgilash» kabi tamoyillarga - asoslanadi. U oʻzgarishlarga moslashuvchan tarzda javob berish imkonini beruvchi xulq-atvor xususiyatlarini shakllantiradi va shu orqali rejalashtirishga yoʻnaltirilgan «causation» (sabab-oqibatga asoslangan) yondashuv doirasidan chiqadi. Kasbiy ta'lim oʻquvchilarda ta'lim natijalari (Lear-ning outcomes) asosida tadbirkorlik

ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari ular qiziqish ham bir vaqtda dual ta’lim asosida ta’limning individual usish muhitiga olib keladi.

Tadqiqot maqsadi O‘quv natijalarini belgilash mezonlari, tadbirkorlik ko‘nikmalariga oid o‘quv natijalari yevropa tadbirkorlik kompetensiyalari tizimi (EntreComp) kabi asoslarga tayangan holda, quyidagi uchta yo‘nalish bo‘yicha aniq belgilab beriladi, g‘oyalar va imkoniyatlar (imkoniyatlarni aniqlash qobiliyati, ijodkorlik, qarashlarni shakllantirish hamda axloqiy va barqaror fikrlash) kasbiy ta’lim o‘quvchilarida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, resurslar (o‘zini anglash va o‘z imkoniyatlariga ishonch, motivatsiya va qat’iyatlilik, shuningdek, moliyaviy va inson resurslarini safarbar etish) va amaliy harakat (tashabbus ko‘rsatish, rejalashtirish va boshqarish, noaniqlik va xatarlarni yengib o‘tish hamda boshqalar bilan hamkorlikda ishlash)dir. Pedagogik yondashuvlarda ta’lim natijalariga erishish maqsadida, kasbiy ta’limida qo‘llaniladigan faol o‘qitish usullaridir. O‘quvchilar mahalliy kompaniyalar yoki jamiyat duch kelayotgan real muammolar asosida biznes-modellarni ishlab chiqish va taklif etish ustida jamoa bo‘lib ishlaydilar. Simulyatsiya va o‘yinlashtirishda biznes-simulyatsiya o‘yinlari yoki virtual bozorlardagi savdo jarayonlari orqali talabalar xatarlarni boshqarish va qaror qabul qilish tezligi bo‘yicha, amaliy tajriba orttiradilar. Inkubatsiya yondashuvida esa, ta’lim muassasasi qoshida kichik hajmdagi startap muhitlari (masalan, vaqtinchalik savdo nuqtalari yoki kampus hududidagi korxonalar) tashkil etish, bu esa o‘quvchilarga real mablag‘lar va resurslarni boshqarish bo‘yicha amaliy imkoniyatlarni taqdim etadi.

Baholashda esa o‘rganish uchun baholash natijalariga asoslangan ta’limda an’anaviy yozma imtihonlar o‘rniga natijalarga asoslangan baholash juda muhimdir. Kasbiy ta’lim o‘quvchilarda ta’lim natijalari (Lear-ning outcomes) asosida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari masalan, ijodkorlik, yetakchilik va chidamlilikni - bosqichma-bosqich xulq-atvor ko'rsatkichlari yordamida baholaydi. Portfolio baholash g‘oyalarni shakllantirish va prototiplashdan tortib yakuniy taqdimotgacha (taqdimot) butun jarayonni, mulohaza yozuvlari bilan birga baholaydi.

360 darajali fikr-mulohaza nafaqat o‘qituvchilarning, balki jamoa a’zolarining (tengdoshlar bahosi) va tadbirkorlar va mahalliy biznes mutaxassislari kabi tashqi ustozlarning fikrlarini ham o‘z ichiga oladi.

Natijalar “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining 29-maqsadi fuqarolarni kasb-hunarga o‘qitish, tadbirkorlik ko‘nikmalari va xorijiy tillarni egallash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Xususan, 2 million nafar fuqaroni o‘qitish, 700 ming nafar ishsiz va ish qidiruvchining ta’lim xarajatlarini vaucher tizimi orqali qoplash, kasb-hunarga o‘qitishda xususiy sektor ulushini oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek 2026-yilning 10-sentabr kuni Jizzax shahridagi Yoshlar shaharchasida yoshlarning bandligini ta’minlash, ularni zamonaviy kasblarga yo‘naltirish hamda tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Kelajak tadbirkori-2026” kasb, bandlik va tadbirkorlik imkoniyatlari yarmarkasi bo‘lib o‘tdi. Bunda tadbirda ta’lim yo‘nalishlari, innovatsion loyihalari, startaplari va boshqa imkoniyatlarini ko‘rgazma orqali namoyish etildi.

Yarmarkadan asosiy maqsad, kasbiy ta’lim o‘quvchilarda ta’lim natijalari (Lear-ning outcomes) asosida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari doirasida yoshlarga kasb va tadbirkorlik bo‘yicha, tashabbuslarini qo‘llab quvvatlashdir.

Tadbirkorlik bo‘yicha, standart ta’lim dasturini joriy etayotgan kasbiy ta’lim muassasalari va shunga o‘xshash muassasalar tadbirkorlarga xos tafakkur, fazilatlar va salohiyatga ega shaxslarni shakllantirish; tadbirkorlik ta’limi bilan shug‘ullanuvchi professional ta’lim, mahalliy hokimiyat organlari va startaplarni qo‘llab-quvvatlovchi tashkilotlar sonini ko‘paytirish. Tadbirkorlik bo‘yicha, standart ta’lim dasturini joriy etishni qo‘llab-quvvatlash, boshqa kasbiy ta’lim muassasalari bilan va jamiyat bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun hamjamiyatlar yaratish tadbirkorlarni jalb qilish va ularni ta’lim jarayoniga yo‘naltirish, kasbiy ta’lim o‘quvchilarda ta’lim natijalari (Lear-ning outcomes) asosida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari muhim jarayondir.

Yaponiyada 2024-yil yanvar oyida Noto yarim orolida yuz bergan zilzila jabrlanuvchilariga yordam ko‘rsatishda, qo‘llanilganini bilgan o‘quvchilar nafaqat ijtimoiy muammolarni hal etish katta foyda keltirishi mumkinligini angladilar, balki tadbirkorlikni o‘z hududlarida sodir bo‘lgan real misol orqali, yanada yaqin va tushunarli hodisa sifatida qabul qila boshladilar. Bundan tashqari, o‘qituvchilar bilan bo‘lgan uchrashuvlar va suhbatlar davomida men ularda boshqa kasb hunar muassasalaridagi vaziyatlar haqida bilish hamda o‘zlarini o‘ylantirayotgan masalalar, xavotirlar va duch kelayotgan qiyinchiliklarni hamkasblari bilan muhokama qilish istagi borligini aniqladim. Shu bois, tadbirkorlik ta’limi dasturida ishtirok etayotgan kollej texnikum umuman kasbiy ta’lim muassasa o‘qituvchilari o‘zaro fikr almashishlari va muloqot qilishlari uchun yil davomida bir qator tadbirlarni tashkil etdik va shu orqali ular o‘rtasida hamjamiyat shakllanishiga ko‘maklashish kreativ yondashuv muhim deb hisoblayman.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kasbiy ta’lim o‘quvchilarda ta’lim natijalari (Lear-ning outcomes) asosida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari o‘quv natijalariga asoslangan tadbirkorlik ta’limining negizi nima o‘qitilishiga (kirish omili) emas, balki o‘quvchilar nimani bajarishga qodir bo‘lib yetishishiga (chiqish omili/natija) e’tibor qaratishdan iboratdir. Uning pedagogik mohiyati kasb-hunar ta’limiga xos bo‘lgan amaliy va real hayotga yo‘naltirilganlik xususiyatidan foydalangan holda, o‘quvchilar faol ravishda tavakkalchilikka qo‘l uradigan va qiymat yaratadigan ta’lim jarayonini tashkil etishda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston - 2030” PF-158-son 2023. 1-ilova, 29-maqsad, 30 b.

2. K.Yoshiyama., O‘quvchilarda ta’lim natijalari tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik asoslari. Waseda universitetidan 2023. 45-46 b.

3. J.Kaneko., Tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘quvchilarda shakllantirish. Kaisei o‘rta maktabidan 2023. 140-141 b.